



PEDAGOGIK OLIY TA'LIMDA TALABALARNING KOLLABORATIV MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH: QIYOSIY YONDASHUVLAR, METODLAR VA RAQAMLI INFRATUZILMA

Badalova Gulira'no Mirolimjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Tel.: +998 99 9981835. E-Mail: ak_mat14@yahoo.de

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16810200>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 07-Avgust 2025 yil

Ma'qullandi: 10-Avgust 2025 yil

Nashr qilindi: 12-Avgust 2025 yil

KEY WORDS

kollaborativ madaniyat; pedagogik ta'lim; loyiha asosida o'qitish; LdL; rolli o'yin; akademik munozara; madaniyatlararo kompetensiya; raqamli platformalar; simulyatsiya sinfi; dual ta'lim; formatif baholash; institutsional qo'llab-quvvatlash.

ABSTRACT

Maqolada ikki turli pedagogik oliy ta'lim tizimi misolida talabalarda kollaborativ madaniyatni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi: loyiha asosida o'qitish, "o'qitish orqali o'rganish" (LdL), rolli o'yinlar va akademik munozaralar, shuningdek madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish yo'llari yoritiladi.

(Introduction). Bugungi global ta'lim makonida o'qituvchilarning nafaqat bilimli, balki jamoada ishlay oladigan, moslashuvchan va ochiq fikrli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda kollaborativ madaniyatni shakllantirish zamonaviy ta'lim strategiyalarining markaziy yo'nalishiga aylangan. Rossiya va Germaniya tajribalari shuni ko'rsatadiki, jamoaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodlar – loyiha asosida o'qitish, keys-stadi, rolli o'yinlar va madaniyatlararo hamkorlik – nafaqat bilimni chuqurlashtiradi, balki talabalarni ijtimoiy jihatdan faol va mas'uliyatli pedagog sifatida shakllantiradi. Mazkur maqola ana shunday yondashuvlarning ilmiy-nazariy asoslarini, amaliy misollarini va tizimli farqlarini tahlil etadi. Taqqoslash natijasida aniqlangan ilg'or tajribalar O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun ham muhim metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Rossiya Federatsiyasida pedagogik oliy ta'lim sohasida kollaborativ madaniyat shakllantirish boy tarixiy va nazariy asosga ega. Yuqorida qayd etilganidek, XX asr 70-80-yillaridayoq sobiq Ittifoq pedagoglari o'rtasida "Hamkorlik pedagogikasi" yondashuvi tadbiq etilgan edi. Bugungi kunda Rossiyada, pedagogik oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarida talabalarning jamoaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga katta urg'u berilgan. Rossiyalik mutaxassis T.M. Bekturov ta'kidlaganidek, kollej va universitetlarda kollaborativ o'qitish usullarini qo'llash bo'lajak pedagoglarning professional kompetensiyalarini shakllantirishning muhim omilidir[4:129]. Bu yondashuv talabalarga nafaqat nazariy bilim berish, balki ularni kelgusidagi o'qituvchilik faoliyatiga ijtimoiy-kommunikativ jihatdan ham hozirlash maqsadini ko'zlaydi.

Germaniyada oliy ta'lim tizimi o'zining mustahkam akademik an'analari va yuqori tashkiliy madaniyati bilan ajralib turadi. Pedagog kadrlar tayyorlashda ham nemis universitetlari talabalarining mustaqil va tanqidiy fikrlashiga katta urg'u berishadi. Shu bilan birga, so'nggi o'n yilliklarda Germaniya oliy ta'limida ham jamoaviy loyihalar, seminar mashg'ulotlarida talabalararo hamkorlikni rivojlantirishga e'tibor kuchaydi. Garchi Germaniya maktablarida ko'p yillar davomida darslar asosan an'anaviy intizom va mustaqil ishlashga yo'naltirilgan bo'lsa-da, pedagogik oliy ta'lim bosqichida jamoaviy loyihalar va guruhli seminarlar orqali "kollaborativ o'rganish" keng targ'ib qilinmoqda. Masalan, 1980-yillarda professor Jean-Pol Martin tomonidan ishlab chiqilgan "Lernen durch Lehren" (O'qitish orqali o'rganish) metodi dastlab qarshilikka uchragan bo'lsa-da (chunki o'sha davrdagi nemis ta'limi ko'proq yodlash va intizomga tayangan edi) [1: 345], keyinchalik maktablarda va universitetlarda keng qo'llanila boshladi. Bu metodning mazmuni – talabalarni kichik guruhlariga bo'lib, ularga ma'lum bir mavzuni boshqalarga o'rgatish vazifasini topshirishdir. LdL usuli talabalarining faolligini oshirish barobarida ularda rejalashtirish, muammo yechish, omma oldida chiqish qilish kabi hayotiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi. Eng muhimi, talabalarda bir-biriga o'rgatish jarayonida o'zaro hurmat, mas'uliyat va kommunikatsiya madaniyati shakllanadi. Hozirgi vaqtda Germaniya universitetlarida LdL metodi pedagoglarni tayyorlash jarayonining muhim qismiga aylangan bo'lib, talabalarining kollaborativ madaniyatini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ushbu tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli asosiy metod sifatida tanlandi. Rossiya va Germaniya davlatlarining pedagogik oliy ta'lim tizimlarida kollaborativ madaniyatni shakllantirish bo'yicha yondashuvlari o'rganildi. Tahlilda loyiha asosida o'qitish, rolli o'yinlar, akademik munozaralar, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari va ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar o'zaro taqqoslandi. Har ikki davlatda mavjud bo'lgan normativ-huquqiy baza, tashkiliy-institutsional imkoniyatlar, pedagogik yondashuvlar va texnologik infratuzilma qamrab olindi. Shuningdek, kontent tahlili orqali adabiyotlar, amaliy tajribalar va ilmiy maqolalar asosida dalillarga tayangan holda chuqur tahlil berildi. Rossiya va Germaniya tizimlari o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar aniqlanib, ularning samaradorlik darajalari solishtirildi. Natijada, o'zbek oliy pedagogik ta'lim tizimiga mos keladigan eng yaxshi amaliy yondashuvlar tavsiya qilishga asos yaratildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results). Rossiya pedagogik oliy o'quv yurtlarida kollaborativ madaniyatni rivojlantirishning asosiy usullari sifatida loyiha asosida o'qitish, keys-stadi (vaziyatli masalalarni hal qilish), akademik munozara va rolli o'yinlar keng qo'llanadi. Xususan, loyiha metodi juda mashhur bo'lib, talabalarga real pedagogik muammolar ustida jamoa bo'lib ishlash imkonini beradi – masalan, maktabda yangi to'garak tashkil etish loyihasi yoki sinf rahbariyati konsepsiyasini ishlab chiqish. Bunday loyihalar orqali talabalar axborot izlash, guruhda vazifalarni taqsimlash, birgalikda qaror qabul qilish kabi malakalarni egallaydilar. Keys-metod esa talabalarga hayotiy pedagogik vaziyatlarni tahlil qilib, jamoaviy muhokama orqali yechim topishni o'rgatadi – bunda ularning tahlil qilish, muloqot va guruh bo'lib qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Ilmiy munozaralar ham Rossiya universitetlarida pedagogika fanlarini o'qitishda keng qo'llanadi; bunday darslarda talabalar turli pedagogik yondashuvlar yuzasidan fikr almashib, o'z pozitsiyasini asoslashga va boshqalarni hurmat bilan tinglashga odatlanadi. Rolli o'yinlar orqali bo'lajak o'qituvchilar maktab hayotidagi rollarni (o'qituvchi, ota-ona, o'quvchi) ijro etib ko'rishadi va

noaniq yoki stressli vaziyatlarda (masalan, ota-onalar yig'ilishi, nizoli vaziyat) munosib yo'l tutishni mashq qiladilar – bu ularda ijtimoiy moslashuvchanlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi[6:529].

Ta'kidlash lozimki, Rossiyada kollaborativ o'qitish metodikasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muayyan sharoit va omillar belgilangan. Jumladan, T.M. Bekturov o'z tadqiqotida bu usullarni joriy etish uchun ochiq va ishonchli o'quv muhiti, moslashuvchan guruh tuzilmasi, muntazam va konstruktiv fikr-mulohaza (feedback) tizimi zarurligini ta'kidlaydi[4:130]. Agar guruhda atmosfera do'stona bo'lsa, har bir talaba qo'rqmasdan fikr bildirsa, xatolar uchun qoralash bo'lmasa – bunday muhitda hamkorlik samarasi yuqori bo'lishi aniq. Shuningdek, topshiriqlar tuzilishi aniq va maqsadi ravshan bo'lishi talabalar uchun muhim motivatsion omildir – har kim o'z rolini tushunsa va umumiy maqsadni ko'rsa, jamoaviy ishga mas'uliyat bilan yondashadi. Albatta, o'qituvchi-mentor ham muhim rol o'ynaydi: u guruh faoliyatini mohirlik bilan yo'naltirishi, kerak joyda teskari aloqa berib borishi va eng asosiysi – jamoada hurmat, ishonch va innovatsiyaga ochiqlik ruhini shakllantirishi lozim. S.Yu. Dronova qayd etganidek, aynan kreativlik, o'zaro hurmat va avtonomiyaga yuqori baho beriladigan hamkorlik muhitida ham o'qituvchi, ham talabalar motivatsiyasi ortadi[5:96].

Rossiya tajribasida kollaborativ madaniyatni shakllantirish yo'lida ayrim muammolar va to'siqlar ham kuzatiladi. O'tkazilgan so'rovlar va kuzatuvlarga ko'ra, ko'plab professor-o'qituvchilar hamkorlikka asoslangan darslarga tayyorgarlik ko'rishga vaqt va resurs yetishmasligidan shikoyat qiladilar. Haqiqatan, bunday darslarni o'ylab chiqish – masalan, qiziqarli topshiriqlar tuzish, rollarni taqsimlash, baholash mezonlarini ishlab chiqish – an'anaviy ma'ruza tayyorlashdan ko'ra ko'proq mehnat talab qiladi. Bundan tashqari, o'quv rejalarining og'irligi va professorlarning dars yuki ko'pligi tufayli hatto innovatsiyaga moyil pedagoglar ham ba'zan konservativ uslubga qaytib qolishadi. Yana bir muammo – ayrim keksa o'qituvchilarning yangi texnologiya va usullardan habardor emasligi yoki o'z pedagogik uslubini o'zgartirishga rozi emasligidir. Shu bois Rossiyada pedagoglarni qayta tayyorlash kurslarida zamonaviy interfaol metodlar bo'yicha treninglarga alohida e'tibor berilmoqda. Yaxshi tomoni, yosh avlod o'qituvchilari orasida kollaborativ pedagogikaga qiziqish yuqori – ular axborot texnologiyalarini darsga tatbiq etish, onlayn hamkorlik vositalaridan foydalanish kabi yangiliklarni tez qabul qilmoqdalar. Ko'plab universitetlarda aralash o'qitish (blended learning) tatbiq qilinib, onlayn kollaborativ platformalar orqali talabalar birgalikda loyihalar ustida ishlashyapti, forumlarda munozara qilishmoqda. Natijada, hatto pandemiya davrida ham talabalar jamoaviy ishlarni to'xtatishmagan – virtual guruhlar shakllantirib, masofadan turib hamkorlik qilish tajribasini o'rttirishgan.

Rossiya pedagogik oliy ta'lim muassasalarida kollaborativ madaniyatni shakllantirish bo'yicha salmoqli ilmiy-amaliy baza yaratilgan. Talabalarning fikricha, jamoaviy mashg'ulotlar ta'lim jarayonini qiziqarli va mazmunli qiladi, o'zgalar nuqtai nazarini chuqurroq tushunishga yordam beradi, kelishish, tinglash va boshqalarni ishontirishga o'rgatadi. Bu fikrlar zahirida shuni tushunish mumkinki, bo'lajak o'qituvchilarni faqat predmet bo'yicha emas, balki jamoada ishlash bo'yicha ham tayyorlash – ularning kelgusidagi professional muvaffaqiyatining garovidir.

Germaniya tajribasining o'ziga xos jihatlaridan biri – hamkorlikdagi faoliyatni qat'iy tizimli rejalashtirish va aniq intizomga amal qilishdir. Tadqiqotlar ko'rsatishicha,

Germaniyada onlayn hamkorlikda o'qitishda ham strukturali muhit va asinxron muloqot ustunlik qiladi: talabalar jadvalga qat'iy amal qilib, belgilangan muddatlarda o'z hissasini qo'shadi, guruhda aniq taqsimlangan vazifalarni bajaradi. Aniq va ravshan kommunikatsiya, vaqtga rioya qilish, intizom – bu nemis oliy ta'limida jamoaviy ishning odatiy mezonlaridir. Talabalar bahs-munozaralarda ham keskin tortishuvlardan ko'ra muloyim va hurmatli dialog orqali konsensusga erishishga intiladilar. Shuningdek, ko'p madaniyatli guruhlarda ishlash tajribasi tufayli, nemis universitetlari pedagogik yo'nalishlarida madaniyatlararo kompetensiya rivojiga ham e'tibor qaratiladi – talabalarni turli madaniyat vakillari bilan hamkorlikda ishlashga o'rgatishadi. Chunki Germaniyada o'qituvchilar ko'pincha ko'pmillatli sinflarda ishlashlariga to'g'ri keladi, shu bois bakalavr va magistratura dasturlaridayoq ularga madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari singdiriladi[2:49].

Germaniya oliy ta'lim muassasalarida kollaborativ madaniyatni rivojlantirish uchun moddiy-texnik baza juda yuqori darajada. Deyarli barcha universitetlarda elektron ta'lim platformalari (*ILIAS, Moodle* va boshqalar) joriy etilgan bo'lib, talabalar o'sha joyda guruh forumlari, *wikilar*, hamkorlikdagi hujjatlar ustida ishlash kabi imkoniyatlarga ega. Ko'pgina universitetlarning pedagogiy fakultetlarida maxsus "simulyatsiya sinflari" yoki metodik markazlar mavjud – bu joylarda bo'lajak o'qituvchilar kichik guruhlarda dars o'tish, virtual sinfda mashq qilish kabi amaliyotlarni amalga oshiradilar. Berlin Humboldt Universiteti qoshidagi ta'lim markazida talabalar kichik guruh bo'lib dars rejalashtirib, uni real sinf muhitida qo'g'irchoqlar yoki talabalarning o'zlari ishtirokida o'tkazishadi; jarayon videoga yozilib, keyin birgalikda tahlil qilinadi. Bunday resurslar talabalarni hamkorlikda ishlashga o'rgatish bilan birga, ularga refleksiya qilish, ya'ni birgalikda o'z faoliyatlarini tahlil etib, xulosa chiqarishni ham o'rgatadi.

Shuningdek, Germaniyada dual ta'lim tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan – pedagogika yo'nalishidagi talabalarning universitetda olgan bilimlarini maktablardagi amaliyot bilan integratsiya qilish uchun hamkorlikda dasturlar ishlab chiqilgan. Bu jarayonda talabalar guruh-guruh bo'lib maktablarda amaliyot o'tashadi, tajribalarni almashishadi va universitet-maktab kollaboratsiyasi yo'lga qo'yiladi. Ilmiy manbalarda bunday transdisiplinar hamkorlik o'zaro o'rganishga va integratsiyaga olib kelishi, natijada butun tizimni takomillashtirishiga xizmat qilishi ta'kidlangan[3:130]. Darhaqiqat, oliy ta'lim va amaliy maktab tizimi o'rtasidagi bunday jips aloqalar Germaniyada o'qituvchilarning kasbiy hamjamiyatga tez qo'shilib ketishiga zamin yaratadi.

Germaniya pedagogik oliy ta'limida kollaborativ madaniyatni rivojlantirish yuqori darajadagi moddiy-texnik infratuzilma, puxta o'ylangan metodik tizim va madaniy tamoyillar bilan mustahkamlangan. Nemis talabalari jamoaviy ishlash jarayonida tartib-intizom va rejalilikka amal qilishni o'rganadilar, shu bilan birga ochiq fikr almashishga ham odatlanadilar. Ular uchun bahs munozara – bu bir-birini boyitish usuli, shu sabab o'zaro hurmat yuqori qadrlanadi. Natijada, bo'lajak pedagoglar nafaqat o'z fanini puxta egallagan mutaxassis, balki jamoadagi lider va ishtirokchi sifatida ham shakllanadi. Bu esa ularga kelgusida maktab jamoalarida samarali ishlash, hamkasblari bilan hamkorlikda innovatsiyalar joriy etish kabi faoliyatlarda qo'l keladi.

Rossiya tajribasi ko'rsatadiki, pedagogik ta'limda kollaborativ madaniyatni shakllantirishga qaratilgan metodikalar – loyiha asosida o'qitish, keys-stadi, rolli o'yinlar – bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim rol

o'ynaydi. Ushbu usullar yordamida talabalar real pedagogik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etadi, guruhda ishlash, muloqot qilish va qaror qabul qilish malakalarini egallaydi. Ammo Rossiya tizimida ayrim metodik va tashkiliy to'siqlar mavjud – jumladan, dars yuklamasining ko'pligi, tajribali o'qituvchilarning konservativ yondashuvi va resurs yetishmovchiligi. Germaniyada esa LdL (Lernen durch Lehren) kabi innovatsion metodlar keng joriy qilingan bo'lib, ular talabalarning mustaqil va jamoaviy o'qituvchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. Nemis universitetlaridagi yuqori texnik bazalar, simulyatsiya xonalari, elektron platformalar (Moodle, ILIAS) va dual ta'lim tizimi kollaborativ madaniyatni rivojlantirishda muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Germaniyada qat'iy rejalashtirish va intizomga asoslangan guruhli faoliyat, talabalararo hurmatga asoslangan muloqot pedagogik samaradorlikni oshiradi. Har ikki tizimda ham kollaborativ yondashuvlar nafaqat professional, balki shaxsiy kompetensiyalarni ham rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Tahlil natijasida, O'zbekiston uchun ham loyiha asosidagi o'qitish va LdL uslubining uyg'unlashtirilgan modeli dolzarb yechim sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations). Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarda kollaborativ madaniyatni shakllantirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masaladir. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Rossiya va Germaniya tajribalarida umumiy tendensiya – kollaborativ madaniyatni shakllantirishga intilish mavjud bo'lib, har birining o'ziga xos yondashuvi va yutuqlari bor. Rossiyada nazariy bazaning boyligi va innovatsion amaliyotlar uyg'unlashgan holda bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ kompetensiyalari shakllantirilayotir, ammo an'anaviy tizim inertsiyasi ma'lum qiyinchiliklar tug'dirmoqda – vaqfiy, metodik to'siqlar hali ham mavjud. Germaniyada esa moddiy-texnik va tashkiliy resurslar yuqoriligi kollaborativ o'qitish jarayonini bemalol yo'lga qo'yishga sharoit yaratgan, natijada talabalarda tartibli hamkorlik va madaniyatlararo jamoaviy muloqot qobiliyatlari chuqur shakllanmoqda.

Xulosa o'rnida aytganda, pedagogik oliy ta'limda kollaborativ madaniyatni shakllantirish – bu izchil innovatsiyalarni, ham nazariy, ham amaliy yondashuvlarni talab qiladigan jarayon. Biroq, bunday sa'y-harakatlar natijasida ijodkor, jamoada ishlay oladigan, kommunikativ va hamkorlikka ochiq pedagog kadrlar yetishib chiqadi. Kelajak avlodga ta'lim-tarbiya beradigan bu o'qituvchilar o'z navbatida maktablarda ham hamkorlik ruhini yoyib, ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga qodir bo'ladi. Shunday ekan, yuqoridagi davlatlar tajribasi tahlili asosida, O'zbekiston sharoitida eng yaxshi usullar va yondashuvlarni uyg'unlashtirib, oliy ta'lim tizimini talabalarda kollaborativ madaniyatni kamol toptirishga yo'naltirish zarur va dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Burow O. , Bornemann S. Lernen durch Lehren: Konzeptualisierung als Glücksquelle. Das große Handbuch Unterricht & Erziehung in der Schule. Carl Link Verlag, 2018. -p. 345–360.
2. Fischer L. Cross-Cultural Perspectives on Online Collaborative Learning in Germany //International Journal of Online and Distance Learning 5(1), 2024. -p. 49-59
3. Straub R., Vilsmaier U. Pathways to educational change revisited– controversies and advances in the German teacher education system, Teaching and Teacher Education, Volume 96, 2020. -p. 130-139.

4. Бектуров Т. М. Роль коллаборативного обучения в развитии социально-коммуникативных навыков студентов педагогических вузов // Эпоха науки. 2025. №42. - С. 129-131
5. Дронова С. Ю. Мотивация преподавателя: креативность и коллаборативная среда // Образование и наука, № 6, 2019. - С. 96-102.
6. Синицына Г.П. Стратегия обучения в партнёрстве: коллаборативное обучение // Молодой ученый, №5. 2017. -С. 529-531.

